

FARG'ONA VILOYATIDA AYOLLAR JINOYATCHILIGINING HOLATI, TUZILISHI VA DINAMIKASI HAMDA RESPUBLIKA BILAN QIYOSIY TAHLILI



O'rinova Dilshoda Adxamovna

Farg'ona viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida ayollar jinoyatchiligining hozirgi holati, uning tarkibi, dinamikasi va hududiy xususiyatlari keng qamrovli tarzda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ayollar jinoyatchiligi, jinoyat dinamikasi, jinoiy xulq, Farg'ona viloyati, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализировано современное состояние женской преступности в Ферганской области, ее структура, динамика и территориальные особенности.

Ключевые слова: женская преступность, динамика преступности, преступное поведение, Ферганская область, сравнительный анализ.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current state of female criminality in the Fergana region, focusing on its structure, dynamics, and territorial characteristics.

Keywords: female criminality, crime dynamics, criminal behavior, Fergana region, comparative analysis.

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonda ayollar jinoyatchiligi masalalarini ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududlar kesimida jinoyatlarning tarkibi, sabablari va dinamikasini o'rganish jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha aniq va manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Farg'ona viloyati misolida ayollar jinoyatchiligining holati va respublika ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili hududiy farqlarni aniq belgilashga, ularning shakllanishiga ta'sir etayotgan omillarni chuqur anglashga yordam beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda jinoyatchilikning, xususan, ayollar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha davlat siyosati tizimli mustahkamlanib, profilaktika choralarini kuchaytirishga doir muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi

kurashish tizimini samarali tashkil etish to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi farmoni jinoyatchilikni hududlar kesimida o'rganish, gender statistikasini rivojlantirish va xavf guruhidagi shaxslar bilan manzilli ishlash vazifalarini belgilab berdi [1].

Ushbu strategik yondashuvning izchil davomiyligini ta'minlash maqsadida 2025-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat avvalgi profilaktika islohotlarini mantiqan davom ettirib, mahallalarda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash, jinoyatchilikni erta bosqichda aniqlash va aholi uchun xavfsiz muhitni yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturini belgilab berdi [2]. Qarorning mazmunida mahalla institutining profilaktikadagi o'rni yanada kuchaytirilib, joylarda aholi qatlamlari bilan manzilli ishlash, xavf guruhidagi shaxslarni erta aniqlash, uyma-uy tushuntirish ishlarini tako-

millashtirish va mahalliy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, 2025-yil 18-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Prezident qarori oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning oldini olish, zo'ravonlik holatlarini erta aniqlash hamda profilaktik hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha mas'ul tashkilotlarga qo'shimcha vazifalar yukladi [3]. Mazkur qaror profilaktika sohasidagi institutsional tizimni mustahkamlash, hududlarda xavfsizlikning barqaror modelini yaratish va aholiga bevosita yo'naltirilgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash va oilaviy munosabatlarda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Oila kodeksi hamda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash to'g'risida"gi qonun ayollar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini chuqur tahlil qilish uchun muhim huquqiy asos yaratadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat oilaviy nizolar, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha kompleks mexanizmlarni belgilab beradi, balki ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, ijtimoiy rolini kuchaytirish va ularga ko'rsatiladigan davlat qo'llab-quvvatlash choralari izchilligini ta'minlaydi.

Ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan S.S.Niyozova va S.N.Salayev ushbu jarayonning mazmunini sharhlar ekanlar, zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha davlat siyosati faqat jismoniy tazyiqni bartaraf etishga emas, balki xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidan iborat ekanini ta'kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, ayolning huquqlaridan xabardorligi, ijtimoiy faolligi va ruhiy barqarorligi kuchaytirilmas ekan, jinoyatchilikning oldini olishda yuqori natijalarga erishish qiyin.

Ayollar jinoyatchiligini o'rganishda shaxsning ijtimoiy maqomi, oiladagi mavqeyi va ijtimoiy muhitning ta'sirini aniqlash ham alohida ilmiy

yondashuvni talab etadi. L.V. Frank jabrlanuvchi shaxsiga doir o'z tadqiqotlarida uning jamiyatdagi o'rnini, ijtimoiy roli va dunyoqarashi asosiy determinantlar sifatida shakllanishini qayd etadi [5]. Ushbu nazariy qarashlar ayollar jinoyatchiligining shakllanishida gender sotsializatsiyasi, an'anaviy rollar, oilaviy nazoratning yetishmasligi yoki ortiqqligi kabi ko'plab omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqotchi M. Abdurasulovanning ilmiy izlanishlarida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ichki psixologik ildizlari, xususan, oilaviy ziddiyatlar, tazyiq, zo'ravonlik, ruhiy tushkunlik, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi muhim determinantlar sifatida ko'rsatiladi. Uning fikricha, ayollarning jinoyat sodir etishiga olib keladigan omillar ko'pincha ularning psixologik holati, shaxslararo munosabatlaridagi izdan chiqishlar, stress, qo'rquv, o'zini himoya qilishga bo'lgan ehtiyoj yoki jamiyatda o'z o'rnini topa olmaslik kabi kompleks holatlar bilan bog'liq [6]. Shuning uchun ayollar jinoyatchiligini tahlil qilishda individual-psixologik omillar bilan bir qatorda, ularning keng ijtimoiy muhitini o'rganish ham zarur.

Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, Farg'ona viloyati misolida o'tkazilgan tahlillar ayollar jinoyatchiligining tarkibi, asosiy turlari, ularning o'sish-pasayish dinamikasi va psixologik omillari respublika darajasidagi umumiy ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Hududiy farqlar, oilaviy nizolarning o'ziga xos ko'rinishlari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, bandlik darajasi va mahalliy mentalitetning ta'siri aniqlanadi. Bunday qiyosiy yondashuv profilaktika tizimini takomillashtirishda, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning manzilli mexanizmlarini ishlab chiqishda, oilaviy ziddiyatlar va psixologik inqirozlarning oldini olishda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuningdek, olingan natijalar ayollar jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy strategiyalarni takomillashtirish, gender tenglikni kuchaytirish, mahalliy ijtimoiy xizmatlar samara-dorligini oshirish, ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va oilaviy tarbiya tizimida psixologik madaniyatni rivojlantirish uchun nazariy metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi ayollar jinoyatchiligining 2005–2024-yillar oralig'ida

O'zbekiston va Farg'ona viloyatidagi o'zgarishlarini chuqur tahlil qilishga qaratilib, statistik-dinamik tahlil, qiyosiy yondashuv, kriminologik diagnostika va normativ-huquqiy tahlil usullarini o'z ichiga oladi. Ayollar jinoyatchiligi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy beqarorlik, iqtisodiy tengsizlik, gender diskriminatsiyasi, oilaviy zo'riqishlar va huquqiy ongning pastligi kabi omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, tadqiqotda ko'p omilli metodlar qo'llanishi ilmiy zarurat hisoblanadi.

Statistik-dinamik tahlil usuli yordamida 2005–2024-yillar oralig'ida ayollar jinoyatchiligi qanday bosqichlarda o'zgarib borganini aniqlashga e'tibor qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2005–2007-yillarda ayollar jinoyatchiligi bosqichma-bosqich oshib borgan: 2005-yildan 2006-yilga o'tish jarayonida jinoyatlar 6,6 foizga, 2007-yilda esa yana 13 foizga ko'paygan. 2008–2010-yillar davomida esa umumiy o'sish 40 foizdan ortiqni tashkil etgan bo'lib, bu davr ayollar orasida sodir etilgan jinoyatlar soni muntazam ko'tarilganini ko'rsatadi. 2011-yilda ma'lum darajada pasayish qayd etilgan bo'lsa-da, 2012-yilda ko'rsatkich yana 6 foizga o'sgan. Ushbu yillardagi tebranishlar iqtisodiy bosimlar, oilaviy ajrimlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning sustligi bilan bog'liq holda talqin qilindi.

Statistik ma'lumotlar 2013–2016-yillarda ayollar jinoyatchiligida barqaror pasayish bo'lganligini ko'rsatdi. Xususan, 2013-yilda jinoyatlar 2,4 foizga kamaygan, 2014-yilda yana 1 foizga pasayish kuzatilgan, 2015-yilda 7,5 foizlik, 2016 yilda esa 5 foizga yaqin pasayish qayd etilgan. Bu davrdagi dinamik kamayish davlat tomonidan olib borilgan gender siyosati, ijtimoiy-ma'naviy islohotlar va ayollar bandligini kengaytirish bo'yicha dasturlar natijasi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, dinamik tahlilning muhim qismi 2017–2019-yillardagi keskin pasayishlarni o'rganishdan iborat bo'ldi. 2017-yilda jinoyatlar 14 foizga, 2018-yilda 34 foizdan ortiq, 2019-yilda esa 25 foizdan ko'proq kamaygani aniqlanib, ushbu yillar ayollar jinoyatchiligi bo'yicha eng past ko'rsatkichlar qayd etilgan davr sifatida ilmiy baholandi. 2020-yildan boshlab pandemiya davri natijasida ayollar jinoyatchiligi yana o'sishga yuz tutdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda ayollar jinoyatchiligi 1,6 barobarga oshgan, 2022-yilda

esa o'sish 20 foizdan ortiqni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich pandemiya sharoitida iqtisodiy bosimlarning keskin kuchaygani, ruhiy tushkunlik va oilaviy ziddiyatlarning ortgani bilan bog'liq tarzda izohlandi. 2023–2024-yillarda esa jinoyatlar qayta kamayish bosqichiga kirib, 2023-yilda 40 foizdan ortiq pasayish, 2024-yilda esa yana bir necha foizlik kamayish qayd etilgan.

Ushbu statistik jarayonlar qiyosiy (komparativ) tahlil orqali Farg'ona viloyati ko'rsatkichlari bilan solishtirildi. Respublika miqyosida 2020–2022-yillarda kuzatilgan keskin o'sish Farg'ona viloyatida o'zining analog ko'rinishda, ammo nisbatan yumshoq shaklda 2021–2023-yillarda namoyon bo'ldi. Xususan, viloyatda ayollar jinoyatchiligi ulushi 11,5 foizdan 13,6 foizgacha ko'tarilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar respublika darajasidagi keskin sakrashlarga yetmagan bo'lsa-da, hududda barqaror yuqorilash tendensiyasi kuzatilgan. Bu farq viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi, bandlik darajasi, mahalla institutining faolligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining hududiy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Metodologiya yana bir tarkibiy qismi kriminologik diagnostika bo'lib, u orqali ayollar jinoyatchiligiga olib keluvchi psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillar tahlil qilindi. Gender stereotiplari, oilaviy tazyiq, zo'ravonlik, iqtisodiy qaramlik, ruhiy tushkunlik, pandemiya davridagi stress-indikatorlar ayollarning huquqbuzarlikka moyilligi bilan bevosita bog'liq ekani ilmiy asosda qayd etiladi. Bundan tashqari, tadqiqot normativ-huquqiy tahlil yondashuvi asosida Oila kodeksi, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash to'g'risida"gi qonun va gender tenglik siyosati bilan bog'liq davlat dasturlarining samaradorligini baholashga qaratildi. Ushbu hujjatlar ayollar jinoyatchiligini kamaytirishda muhim institutsional omil bo'lib, oilaviy ziddiyatlarning oldini olish, ayollarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni faqat umumiy soni bo'yicha emas, balki ularning turlari, motivlari va sodir etilish sharoitlari kesimida o'rganish ham muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jinoyat turlari bo'yicha qiyosiy

tahlil respublika va Farg'ona viloyati ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Avvalo, iqtisodiy motivli jinoyatlar blokida kuzatilgan tendensiyalar diqqatga sazovordir. Respublika bo'yicha 2017–2019-yillarda ayollar jinoyatchiligi keskin pasayish bosqichiga kirgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida 2021–2023-yillar davomida o'g'rilik, firibgarlik va talonchilik kabi an'anaviy mulkiy jinoyatlar bo'yicha 30–40 foizlik pasayish qayd etilgan. Bu holat Farg'ona viloyatida ayollar jinoyatchiligining iqtisodiy omillar bilan bog'liq segmenti izchil qisqarib borayotganidan dalolat beradi.

Amaliy jihatdan bu jarayon ayollar bandligini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikka jalb etish, ijtimoiy yordam dasturlarining nisbatan samarali yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Natijada, ayollar tomonidan sodir etiladigan klassik mulkiy jinoyatlar ulushi kamayib, jinoyatchilikning iqtisodiy bazasi nisbatan torayib borgan.

Biroq, jinoyatlarning boshqa toifalarida aksincha tendensiya kuzatiladi. Respublika miqyosida 2020–2022-yillarda maishiy-nizoli jinoyatlar, oilaviy ziddiyatlar, psixologik bosim va hissiy tanglik ostida sodir etilgan huquqbuzarliklar sezilarli darajada ko'paygan. Farg'ona viloyatida ham 2021–2023-yillardagi raqamlar ushbu umumiy yo'nalishning hududiy analogini ko'rsatadi: mazkur davrda bezorilik jinoyatlari 100 foizdan ortiq, rashk motividagi jinoyatlar esa 55 foizgacha o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu ko'rsatkichlar ayollar jinoyatchiligi tarkibida ruhiy-psixologik zamin kuchayib borayotganini, ya'ni jinoyat sodir etishning asosiy sabablari tobora ko'proq ichki psixologik zo'riqish, hissiy beqarorlik, oilaviy nizolar va shaxslararo qarama-qarshiliklar bilan bog'lanayotganini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Farg'onada ayollar jinoyatchiligi asta-sekin iqtisodiy manfaatga asoslangan jinoyatlardan maishiy, hissiy va psixologik ziddiyatlarga yo'naltirilgan jinoyat turlari tomon siljib bormoqda.

Jinoyatlarning sodir etilish vaqti tahlil qilganda muhim xulosalar yuzaga chiqadi. 2021–2023-yillar davrida Farg'ona viloyatida kunduzgi jinoiy faollik yil sayin 6–24 foiz oralig'ida qisqarib borgan bo'lsa, ayrim yillarda kechasi sodir etiladigan jinoyatlar ulushi 10 foizgacha oshgani

aniqlangan. Vaqt omili bo'yicha bunday siljish respublika miqyosida kuzatilayotgan "jinoyatchilikning vaqt ko'chishi" fenomeniga mos keladi. Ya'ni, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar ko'proq tungi vaqtlarga, nazorat va ijtimoiy ko'rinuvchanlik past bo'lgan sharoitlarga ko'chib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa, bir tomondan, profilaktika choralarining ko'proq kunduzgi davrga yo'naltirilgani, ikkinchi tomondan, tungi vaqtda oilaviy nizolar, maishiy mojarolar va hissiy portlashlar ehtimoli ortishi bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birga, Farg'ona viloyati misolida ayollar jinoyatchiligi respublika bo'yicha kuzatilayotgan umumiy tendensiyalarni takrorlagan holda, bir qator jihatlarida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Hududda iqtisodiy holatdagi jinoyatlar asta-sekin qisqarib borayotgani, aksincha, maishiy nizolar, rashk, psixologik tanglik va oilaviy ziddiyatlarga asoslangan huquqbuzarliklar nisbatan faollashgani ayollar jinoyatchiligida ruhiy-ijtimoiy omillarning ta'siri kuchayib borayotganini bildiradi. Jinoyatlarning sodir etilish vaqtidagi siljishlar ham mazkur jarayonni yanada keskinlashtiradi: kunduzgi huquqbuzarliklar kamaygan bo'lsa-da, ayrim yillarda tungi jinoyatlar ulushining ortgani ijtimoiy muhitdagi beqarorlik, psixologik himoyaning sustligi va ayrim oilalarda ziddiyatlarning chuqurlashganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi va Farg'ona viloyati bo'yicha olingan tahliliy natijalar ayollar jinoyatchiligiga ta'sir etuvchi omillarning ko'p qatlamli, murakkab va o'zaro bog'liq ekanini yaqqol ko'rsatadi. Jinoyatchilikka sabab bo'layotgan asosiy omillar orasida oilaviy ziddiyatlarning kuchayishi, psixologik bosim va hissiy zo'riqishlar, iqtisodiy qiyinchiliklar, bandlik imkoniyatlarining yetishmasligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining ayrim hududlarda samarali ishlamasligi alohida o'rin tutadi. Aynan shu omillar ayollarni huquqbuzarlikka olib keluvchi sharoitlarni yaratadi, shaxsning qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy moslashuvning izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ayollar jinoyatchiligini kamaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan choralar faqat huquqiy vositalar bilan cheklanmasligi, balki ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy va ma'naviy yo'nalishlarda uyg'unlashtirilgan

kompleks siyosatni talab etadi. Jinoyatchilikning zamirida ko'pincha shaxsning ruhiy bosimi, oilaviy nizolar, iqtisodiy qaramlik yoki psixologik yordamning yetishmasligi turgani sababli, profilaktik yondashuvlar ham shaxsning ichki-psixologik holatini chuqur inobatga olgan holda yo'lga qo'yilishi lozim. Farg'ona viloyati misolida aynan maishiy ziddiyatlar va psixologik tanglikka asoslangan jinoyatlarning ko'payib borayotgani ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam markazlari va oilaviy muammolarni erta aniqlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan, ayollar jinoyatchiligi profilaktikasida quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi; *birinchidan*, manzilli psixologik yordam tizimini kengaytirish, ya'ni zo'ravonlik, tazyiq yoki oilaviy nizolarga duch kelayotgan ayollar uchun tezkor va doimiy psixologik ko'mak mexanizmlarini yaratish; *ikkinchidan*, ayollar bandligini oshirish, ularni tadbirkorlik, kasb-hunar va mehnat bozoriga faol jalb qilish orqali iqtisodiy qaramlikni kamaytirish; *uchinchidan*, mahalla, oila va ta'lim muassasalari orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini kuchaytirish, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va nizolarni erta bartaraf etishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni takomil-

lashtirish; *to'rtinchidan*, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot faoliyatini kengaytirish, ayollar uchun huquqiy bilimlarni amaliy ko'rinishda yetkazish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ayollar jinoyatchiligi masalasi jamiyatning ijtimoiy salomatligi, oilaviy barqarorligi va gender tengligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni bartaraf etish uzoq muddatli, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, individual va manzilli profilaktika choralari kengaytirish, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, psixologik yordam infratuzilmasini takomillashtirish va oilaviy nizolarni erta aniqlash bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish kelgusida ayollar jinoyatchiligining barqaror pasayishiga erishishning eng muhim shartlaridir. Bu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi nafaqat Farg'ona viloyatida, balki umuman mamlakat miqyosida jinoyatchilikni kamaytirish, ayollar manfaatlarini himoya qilish va gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini samarali tashkil etish to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-avgustdagi PQ-253-son qarori.
4. Niyozova S.S., Salayev N.S. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2024. – B. 157
5. Франк Л.В. Виктимология и виктимность. – Душанбе, 1972. – С. 8-12.
6. Abdurasulova M. Kriminologiya. – Toshkent: Adolat, 2007. – B. 26
7. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: Yurid.fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2006.
8. Тарновская П.Н. "Женщины-убийцы". Антропологическое наследие. – СПб., 1902; Воронки Т.С. Антропологическое исследование. – СПб., 1891.
9. Мурадова Я.Р. Женская преступность: общефедеральный и региональные аспекты криминологической характеристики, основные направления профилактики (на материалах Краснодарского и Ставропольского краёв): Дис. канд. юрид. наук. – Волгоград, 2008.
10. Щербакова Л.М. Женская насильственная преступность в современной России: криминологические проблемы: Дис. канд. юрид. наук. – Москва, 2008.
11. Heidensohn, F. The Deviance of Women: A Critique and an Enquiry. The British Journal of Sociology, 19 (2), 1968., 164.
12. Leonard, E. A Critique of Criminology Theory: Women, Crime and Society. New York/London: Longman. 1982